SHE’RIYAT VA IJTIMOIY XIZMATGA BOY HAYOT: ERKIN SAMANDARNING MEROSIGA BIR NAZAR

Almaz Ulviy BINNATOVA
Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti Ozarbayjon-Turkmaniston-O‘zbekiston adabiy aloqalari bo‘limi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor
ORCİD İD 0000-0001-7991-3969.

1960-yillarda o‘zining o‘ziga xos va dilbar she'riyati bilan o‘zbek adabiyoti sahnasiga kirib kelgan Erkin Samandarning nazm, nasr va dramaturgiyada yaratgan asarlarisiz bugungi o‘zbek adabiyotini tasavvur qilish qiyin. U faqat adabiyotga oid turli ijodiy tashkilot va nashrlarda emas, balki jamiyatning turli mas'uliyatli sohalarida ham mehnat qilgan. Buning barobarida, o‘zbek adabiyoti rivoji uchun ham munosib hissasini qo‘shgan.

Samandarning hayot yo‘liga nazar solsak, u 1935 yilning 22 martida Xonqa tumanining Zenaxos qishlog‘ida tug‘ilgan. Xorazm davlat pedagogika institutini tugatgach, o‘qituvchilik, viloyat radiosi, “Xorazm haqiqati” gazetasi va viloyat partiyasi kabi joylarda turli vazifalarni bajargan. 1967-1977 yillarda O‘zbekiston televideniesida ishlagan. 1977 yilda “Xorazm haqiqati” gazetasining bosh muharriri etib tayinlangan va shu vazifada 1990 yilgacha faoliyat ko‘rsatgan. Erkin Samandar jamiyat va davlatchilik boshqaruvidagi tajribasi, xalqparvar va mas'uliyatli rahbar sifatida ham taniqli edi. 1990 yilda u O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari lavozimiga tayinlandi va mustaqillikning ilk yillarida ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarga rahbarlik qilgan. 1993 yilda nafaqaga chiqqanidan keyin ham ijod bilan faol shug‘ullanib, bir qancha asarlar yozdi.

Erkin Samandar o‘zi tug‘ilgan Xorazm va butun O‘zbekiston madaniy merosini qo‘llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratgan. Xorazmda Navoiy, Ogahiy, Abdulla Qodiriy kabi buyuk shaxslar nomida bog‘lar va uy-muzeylar barpo etishga tashabbus ko‘rsatgan. Uning asarlari o‘zbek adabiyotining muhim qismini tashkil etuvchi yigirmadan ortiq she'riy to‘plamlar, o‘nlab dramalar, dostonlar va romanlarni o‘z ichiga oladi.

Erkin Samandar ijodini tarixiy mavzuga bag‘ishlab, millatning o‘tmishidagi shaxslar va voqealarning ruhiy holatini aks ettirishga urg‘u bergan. Uning ijodi juda ko‘p adabiyotshunoslar tomonidan ijobiy baholangan va unga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar hali ham davom etmoqda.

2024 yilning 13 aprelida Erkin Samandar o‘zining tug‘ilgan joyi Xorazm viloyatida vafot etdi. Uning vafoti munosabati bilan davlat va xalq oldida qilgan xizmatlari yana bir bor e'tirof etildi.

She'riyat maydoniga 1960 yillarda o‘ziga xos dilbar she'riyati bilan kirib kelgan Erkin Samandarning nazm, nasr, dramaturgiyada yaratgan asarlarisiz bugungi o‘zbek adabiyotini tasavvur qilish qiyin. E'tiborli jihati, Erkin Samandar (1935-2024) o‘zining hayoti, faoliyati davomida faqat adabiyotga oid turli ijodiy tashkilotlar, nashrlarda emas, qator mas'uliyatli sohalarda mehnat qildi va shunda ham o‘zbek adabiyoti rivoji uchun o‘zining munosib hissasini qo‘shdi.

Ko‘pchilikka ma'lum: Evropada “shoirlar qishloqda tug‘ilib, Parijda vafot etishadi” degan ibora mavjud. Ushbu ibora sovet davrida ham ijodkorlar uchun amaliy ifoda kasb etdi va qo‘liga qalam ushlagan havaskor ham, haqiqiy iqtidor egasi ham poytaxtga intildi. Ammo hamma poytaxtda yashagan ijodkorlar orasidan ham adabiyotda iz qolarli asarlar qoldi deya ayta olmaymiz.

Agarki, Erkin Samandarning xayot yo‘liga nazar solsak, u 1935 yilning 22 martida Xonqa tumanining Zenaxos qishlog‘ida tug‘ildi. Xorazm davlat pedagogika institutini bitirgach, o‘rta maktabda o‘qituvchi, Urganch tuman gazetasida, viloyat radiosida, ”Xorazm haqiqati” gazetasi va viloyat partiya komiteti, viloyat matbuot boshqarmasida turli mas'ul vazifalarda faoliyat ko‘rsatdi. 1967-77 yillarda esa Toshkentdagi O‘zbekiston televideniyasida turli lavozimlarda mehnat qildi.

1977 yilda yana ona yurtiga qaytib, “Xorazm haqiqati” gazetasida bosh muharrir vazifasiga tayinlandi. Erkin Samandar ushbu vazifada to 1990 yilgacha faoliyat ko‘rsatdi. 1990 yilda esa viloyat partiya komiteti kotibi qilib saylandi. 1990 yil martida O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimi joriy etildi va Prezident Kengashi tuzilmasi ish boshladi. Ushbu Prezident Kengashiga Sarvar Azimov, Shukurullo, Halima Xudoyberdieva singari xalq qalbidan joy olgan ijodkorlar va respublikada nufuzli shaxslar tayinlandi. Quvonarlisi, viloyatlardan Erkin Samandar Prezident Kengashi a'zosi qilib saylanadiki, bu ham ijodkorga, ham rahbarlik salohiyatiga ega shaxsga bo‘lgan ishonch namunasi edi.

1990 yilda esa o‘z ishiga mas'uliyatli, davlatchilik boshqaruvidagi tajribasi, boshqaruvdagi salohiyati va millatparvar, xalqqa yaqinligi bilan nom qozongan Erkin Samandar O‘zbekiston Respublikasi bosh vazirining o‘rinbosari lavozimiga tayinlanadi.

SSSR parchalanishining so‘nggi davrlari va mustaqillikning ilk davrlarida bu lavozimda faoliyat ko‘rsatish oson emas, g‘oyatda mashaqqatli va qiyin yillar edi. Ammo doimgiday Erkin Samandar respublikadagi ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim, fan, adabiyot, san'at sohalariga mas'ul rahbar sifatida 1993 yilgacha fidoyilik bilan faoliyat ko‘rsatdi.

1993 yilda nafaqaga chiqib ijodiy faoliyat bilan shug‘ullandi. Ya'ni, Erkin Samandar hayoti davomida ikki marotaba-1967-77 va 1990-1993 yillarda poytaxtda yashab qizg‘in ijtimoiy faolit bilan shug‘ullandi. Nafaqaga chiqqach ham gohida Toshkentda, gohida Xorazmda yashab qator ijodiy asarlar yaratdi.

Ijodkor mehnat faoliyati va portretiga nigoh tashlaganimiz sababi boyagi ibora: “shoirlar qishloqda tug‘ilib, Parijda vafot etishadi”. Erkin Samandar esa, o‘zingiz guvohi bo‘lganingizdek, har ikki bora poytaxtda yashaganida ham adabiy tashkilot, nashrlarda emas, turli mas'ul vazifalarda mehnat qildi. G‘arbda tarqalgan iboraning aksi o‘laroq, har bir hududning o‘z “Pariji”-adabiy muhiti bo‘lishi, noyob iqtidorlar o‘zi tug‘ilgan mahallalarida yashab ham adabiyot yuksalishiga hissa qo‘shishi mumkinligini isbotlab berdi. Shuningdek, viloyatdagi rahbarlik vazifalarida ishlaganida ham, respublika miqyosidagi mas'ul lavozimida ham chekka hududlardagi iqtidorli yoshlarni, noyob qobiliyat egalarini qo‘llab - quvvatladi.Ularga imkoniyat yaratishga intildi.

Xorazmda Navoiy, Ogahiy, Abdulla Qodiriy, Namanganda Mashrab, Andijonda Bobur nomida ko‘plab bog‘lar, uy-muzeylar barpo etilishiga tashabbus ko‘rsatib, rahbarlik qildi.

Shu bilan birga esa o‘zi ham turli sohalardagi rahbarlik vazifalaridan ortib, nazm, dramaturgiya va nasrda ko‘plab asarlar yaratdiki, ular o‘zbek adabiyotining takomilida alohida o‘rin tutadi. Yigirmaga yaqin she'riy to‘plam, O‘zbekiston radio va televideniya xazinasidagi 200ga yaqin qo‘shiq, o‘nlab drama, o‘n beshta doston, 40 dan ziyod badialar, lavhalar, ocherklar, “Tangri qudug‘i”, “Jaloliddin Manguberdi”,, “Quyun izlari yohud Ogahiy”, “Qiron g‘ildiragi” singari nasriy asarlari adibning yuksak ijodiy salohiyati, iqtidoridan darak beradi.

Adib ijodi shu bois ham Matyoqub Qo‘shjonov, Ozod Sharafiddinov, Qozoqboy Yo‘ldosh, Asror Samad, Adhambek Alimbekov, Nurboy Jabbor, Nusratillo Jumaxo‘ja singari ko‘plab o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan ijobiy baholandi. Adibning ijodiga bag‘ishlangan qator magistrlik hamda nomzodlik dissertasiyalari himoya qilindi.

Ya'ni, o‘zbek olimlari tomonidan Erkin Samandar ijodi e'tirof etildi va o‘zining munosib bahosini oldi va bu singari ilmiy tadqiqotlar hanuz davom etmoqda.

Professor Qozoqboy Yo‘ldosh e'tirof etganidek, “Erkin Samandar asosan tarixiy mavzuda qalam tebratadigan, millatning o‘tmishidan uning bugungi ma'naviy qiyofasi ildizlarini qidiradigan ijodkor. Shunisi diqqatga molikki, adib millat tarixida qachondir bo‘lib o‘tgan voqeani emas, balki o‘sha voqeani sodir etgan, uning ayni tarzda kechishini ta'minlagan odamlarning ruhiy holatini aks ettirishga ko‘proq e'tibor beradi. Bu jihatdan uning mashhur tarixiy shaxsiyatlarning insoniy qirralari aks ettirilgan “ Ajdodlar qilichi”, “ Yot hujra”, “ Arabmuhammadxon”, “Abulg‘ozi Bahodirxon” kabi dramalari, “ Tangri qudug‘i”, “Sulton Jaloliddin” singari romanlari diqqatga sazovordir. Adib o‘z ijodi orqali hamisha o‘zi tug‘ilib-o‘sgan Xorazm deb atalmish sehrli ma'vo tarixining goh shonga, gohida qonga esh bo‘lgan sirli sahifalarini varaqlashga urinadi.

Taniqli shoir, qator yirik epik polotnolarning muallifi, bir qancha sahna asarlari bilan tilga tushgan dramaturg Erkin Samandar deyarli butun ijodini o‘tmishni badiiy tadqiq etishga, ajdodlar ruhiyatidagi hissiy to‘lg‘amlarni aks ettirishga bag‘ishladi. Adib uchun moziyni tasvirlashning o‘zi maqsad emas. U o‘tmishning puchmoqlaridan xalqimiz tabiatidagi ulug‘lik va maydalikning ildizlarini qidiradi, kechadan bugunni topishga, hozirni o‘tmish orqali izohlashga urinadi. Hatto Erkin Samandarning lirik asarlari ham kechaning ruhi bilan to‘yintirilganday tuyuladi”.

Adabiyotshunos Asror Samad esa ijodkorning nazmiy asarlariga quyidagicha baho bergandi: “Erkin Samandar she'riyatning mavzui keng qamrovli, yangi hayot qurayotgan inson, kuzning rutubati, vafo va sadoqat, qiz iffati, ona tili, Orol va umuman muhit musaffoligi, qadimiy obidalar, hamjihatlik va birodarlik, qadimiyat va ma'naviyat, erk va adolat, haqiqat va yolg‘on, ishq iztiroblari, go‘zallik va mangulik Erkin Samandar qalamiga olingan mavzular”.

Afsuski, ana shunday iqtidor egasi, davlat arbobi Erkin Samandar 2024 yilning 13 aprelida o‘zi tug‘ilib o‘sgan Xorazm viloyatida vafot etdi. Erkin Samandarning vafoti munosabati bilan uning davlat va xalq, adabiyot oldida qilgan xizmatlari yana bir bora rasmiy e'tirof etildi,

ijodkorlar, olimlar ijodkor Shaxsning, ulug‘ Siymoning qilgan xizmatlarini yana bir bora esga olishdi.

Agarki, O‘zbekiston matbuoti va ijtimoiy tarmoqlardagi Erkin Samandar vafoti bilan e'lon qilingan maqolalar, xabarlarga e'tibor qaratgansak, undagi mazmun, mohiyat va so‘zlarga nigoh tashlasak, ularda quyidagi samimiy so‘zlar ta'ziya shaklida bildirilganiga amin bo‘lamiz:

"Erkin Samandar Xorazm ijod maktabining patriarxi edi".

"Erkin Samandar-nodir fenomen. She'riyati, nasri o‘zi kabi jozibador, haroratli, betakror. Erkin Samandar vafoti millat va adabiyot uchun katta yo‘qotish. Ezgulikning bitta qanoti sindi".

"Erkin Samandar she'rlari bilan aytiladigan qo‘shiqlar O‘zbekiston radiosining oltin fondidan munosib o‘rin egallagan".

"Amu mangu oqadi. Uning bir o‘zanining nomi-Erkin Samandar edi". "Erkin Samandar haqiqiy Xorazm farzandi, shu elning faxri, zamonasining buyuk shoiri, yuksak iste'dod egasi edi".

"Erkin Samandar solih inson, millatning katta shoiri va adibi edilar". "Erkin Samandar mo‘'jizaga aylangan So‘z san'atkori edi. U o‘zbek xalqining orzu-istaklarini, armonlarini nafosat bilan ifoda etdi".

"Ustozni oxirgi manzilga kuzatishga kelgan har bir zamondosh, shubhasiz, uning mashhur "Xorazm farzandiman" she'ridan bir baytni dilidan aytdi".

"U kishi nihoyatda madaniyatli, surati va siyrati go‘zal inson edilar. Shunday odam er ostiga qanday sig‘adi?".

"Erkin Samandar adabiyotimizning ori, g‘ururi bo‘lib, xalq dardi va g‘amiga sherik bo‘la olgan chin shoir bo‘lish bilan birga, jonkuyar rahbar, mehribon ustoz, jamoat va davlat arbobi edi".

"Erkin Samandar vafoti bilan Xorazm adabiy muhitidagi bir davr poyoniga etdi".

Bu e'tiroflar hayotda o‘zidan yorqin iz qoldirgan ijodkor va davlat arbobiga berilgan xalqona fikrlardir va ularning barchasi haqiqat. Kelgusi yili ijodkor va buyuk shaxsiyat sohibining 90 yilligi O‘zbekistonda keng nishonlanadi, bu borada uning saylanma asarlari va u haqdagi xotiralar nashr etilishi rejalashtirilmoqda. Ijodkorning izdoshi va farzandi, olima va shoira Sayyora Samandar tomonidan esa dadasi nomida ijod fondini tashkil etish, shu tarzda iqtidorli yoshlarni qo‘llab- quvvatlash, ijodiy asarlarni targ‘ib qilish tarzida Erkin Samandarning ishlarini yanada yuksaklikda davom ettirish niyati borligi yanada quvonarlidir. Men ushbu ishlarning amalga oshishini tilayman. Erkin Samandar nomi uning asarlari orqali asrlar osha yangrayveradi. Xorazmning asl farzandi, shoir, yozuvchi va dramaturg, publisist, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist, “Do‘stlik” ordeni sohibi Erkin Samandarning shonli hayoti hamda serqirra, zalvorli ijod yo‘li, shubhasiz, mangulikka daxldordir.

Adabiyot:

1. “Amu jilolari”, (1966).
2. “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq”, (1989)
3. “Tangri qudug‘I” (1996)
4. “Jaloliddin Manguberdi”, (1999)
5. “Javohir”, (1980)
6. “Bashorat”, (1994)
7. “Arabmuhammad Bahodirxon”, (2002)
8. “Pahlavon Muhammad Piryorvaliy” (1995)
9. “Suyanch” (1996)
10. “Ming otlilar diyori” (2003)

Almaz Ülvi (BİNNƏTOVA)

ŞEİR VƏ İCTİMAİ XİDMƏTLƏRLƏ DOLU BİR ÖMÜR: ERKİN SƏMƏNDƏRİN İRSİNƏ BAXIŞ

Xülasə

1960-cı illərdə özünəməxsus və cazibədar poeziyası ilə özbək ədəbiyyatı səhnəsinə gələn Erkin Samandarın şeir, nəsr və dramaturgiya sahəsində yaratdığı əsərləri olmadan bu günki özbək ədəbiyyatını təsəvvür etmək çətindir. O, yalnız ədəbiyyatla bağlı müxtəlif yaradıcı təşkilatlar və nəşrlərdə deyil, həm də cəmiyyətin müxtəlif məsuliyyətli sahələrində də çalışıb. Bununla yanaşı, özbək ədəbiyyatının inkişafına da layiqli töhfəsini verib.

Samandarın həyat yoluna nəzər salsaq, o, 1935-ci il martın 22-də Xonqa rayonunun Zenaxos kəndində anadan olub. Xorazm Dövlət Pedaqoji İnstitutunu bitirdikdən sonra müəllimlik, vilayət radiosu, “Xorazm həqiqəti” qəzeti və vilayət partiyası kimi yerlərdə müxtəlif vəzifələrdə çalışıb. 1967-1977-ci illərdə Özbəkistan televiziyasında işləyib. 1977-ci ildə “Xorazm həqiqəti” qəzetinin baş redaktoru vəzifəsinə təyin edilib və bu vəzifədə 1990-cı ilə qədər fəaliyyət göstərib.

Erkin Samandar cəmiyyət və dövlət idarəçiliyindəki təcrübəsi, xalqsevər və məsuliyyətli rəhbər kimi də tanınırdı. 1990-cı ildə o, Özbəkistan Respublikası Baş nazirinin müavini vəzifəsinə təyin olunub və müstəqilliyin ilk illərində ictimai, mənəvi-maarif sahələrinə rəhbərlik edib. 1993-cü ildə təqaüdə çıxandan sonra da yaradıcılıqla fəal şəkildə məşğul olaraq bir sıra əsərlər yazıb.

Erkin Samandar doğulduğu Xorazm və bütün Özbəkistanın mədəni irsini dəstəkləməyə böyük diqqət yetirib. Xorazmda Nəvai, Oğahi, Abdulla Qadiriy kimi böyük şəxslərin adında parklar və ev-muzeylər inşa etməyə təşəbbüs göstərib. Onun əsərləri özbək ədəbiyyatının mühüm hissəsini təşkil edən iyirmidən çox şeir toplusu, onlarla dram əsəri, dastan və romanları əhatə edir.

Erkin Samandar yaradıcılığını tarixi mövzuya həsr edərək, millətin keçmişindəki şəxslər və hadisələrin ruh halını əks etdirməyə diqqət yetirib. Onun yaradıcılığı çoxlu sayda ədəbiyyatşünaslar tərəfindən yüksək qiymətləndirilib və ona həsr olunmuş elmi tədqiqatlar hələ də davam edir.

2024-cü il aprelin 13-də Erkin Samandar doğulduğu Xorazm vilayətində vəfat edib. Onun vəfatı ilə bağlı dövlət və xalq qarşısında göstərdiyi xidmətlər bir daha etiraf olunub.

Açar sözlər: *Erkin Səməndər, özbək ədəbiyyatı, yaradıcı təşkilatlar, Xarəzm, “Xarəzm həqiqəti” qəzeti, Xarəzm vilayəti, ictimai xidmətlər*

Almaz Ulvi (BİNNATOVA)

A LIFE FILLED WITH POETRY AND PUBLIC SERVICE: A GLANCE AT ERKIN SAMANDAR’S LEGACY

Abstract

In the 1960s, Erkin Samandar emerged on the stage of Uzbek literature with his unique and charming poetry. It is difficult to imagine modern Uzbek literature without his works in poetry, prose, and drama. He not only contributed through various creative organizations and publications related to literature but also worked in various responsible sectors of society. Alongside this, he made a valuable contribution to the development of Uzbek literature.

Looking at Samandar’s life path, he was born on March 22, 1935, in the village of Zenakhos in Khonqa district. After graduating from the Khorezm State Pedagogical Institute, he worked in positions such as teacher, in the regional radio, in the newspaper “Khorezm Truth,” and in the regional party. From 1967 to 1977, he worked for Uzbekistan Television. In 1977, he was appointed as the editor-in-chief of the newspaper “Khorezm Truth” and continued in this position until 1990.

Erkin Samandar was also known as an experienced and responsible leader in social and state administration. In 1990, he was appointed Deputy Prime Minister of the Republic of Uzbekistan and, in the early years of independence, led the social and cultural sectors. After retiring in 1993, he continued to actively write and produced several works.

Erkin Samandar paid great attention to supporting the cultural heritage of Khorezm, his birthplace, and the whole of Uzbekistan. He initiated the creation of parks and house-museums named after great figures like Navoi, Ogahi, and Abdullah Qadiri in Khorezm. His works encompass over twenty poetry collections, dozens of dramas, epics, and novels that form an important part of Uzbek literature.

He dedicated his creativity to historical themes, focusing on reflecting the spiritual state of individuals and events from the nation’s past. His works have been highly appreciated by many literary critics, and scientific research dedicated to him continues to this day.

On April 13, 2024, Erkin Samandar passed away in his hometown in the Khorezm region. His services to the state and the people were once again recognized upon his passing.

Key words: *Erkin Samandar, Uzbek literature, creative organizations, Khorezm, “Khorezm Truth” newspaper, Khorezm region, public service*